

## O'z Va O'zlashma Qatlamga Oid Uy-Ro'zg'or Buyum Nomi (Jondor Shevasi Misolida)

*Erkinboyeva Norgul Barot Qizi<sup>1</sup>*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Jondor shevasida iste'molda bo'lgan uy-ro'zg'or buyum nomlari haqida so'z boradi. Tadqiqot jarayonida leksik qatlam masalasiga alohida to'xtalib, uy-ro'zg'or buyum nomlari o'z va o'zlashma qatlam yuzasidan tahlil qilindi. Jondor shevasida uy-ro'zg'or buyum nomlarini ifodalovchi til birliklari leksik-semantik jihatdan tadqiq qilinib, aytim mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jondor shevasi, o'z va o'zlashma qatlam, leksika, umumturkiy til, fors-tojik tili, arab va rus tili, ma'no.

Inson va jamiyat o'rtasidagi aloqa quroli bo'lgan til turli davrlar silsilasidan o'tib kelmoqda. Bu vaqtlar davomida jamiyatdagi o'zgarish va taraqqiyot bosqichlari tilning lug'at tarkibiga ham ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Tildagi har bir kichik, yoki ahamiyati ulkan lug'at o'zgarishlari leksikologiya bo'limi orqali chuqur o'rganiladi. Shuning uchun ham har bir leksik birlik millatning kechasi va bugunini bog'lovchi muhim ko'priklar vazifasini o'taydi. O'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan.<sup>2</sup> Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo'shnichilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan, bunda ayniqsa, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, va o'zbek-turkman bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo'lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, Jondor shevasidagi uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini quyidagi qatlamlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Umumturkiy tildagi uy-ro'zg'or buyum nomlari;
  2. Fors-tojik tilidan o'zlashgan uy-ro'zg'or buyum nomlari;
  3. Arab tilidan o'zlashgan uy-ro'zg'or buyum nomlari;
  4. Rus tili va rus uy-ro'zg'or buyumlari nomlari.
1. Umumturkiy tildagi uy-ro'zg'or buyum nomlari. Ushbu uy-ro'zg'or buyum nomlari o'rganilayotgan hududda eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha qo'llanilib kelmoqda: qazon, qoshiq, cho'mich, qirg'ich, elak, pichoq, cho'lpi, igna, qaychi, bolta, o'choq.

Jondor hududida qo'llaniladigan buyum nomlarining asosiy qismi umumturkiy nomlar hisoblanadi.

Qazon-turli taomlar pishirish uchun mo'ljallangan ro'zg'or buyumi.

Qoshiq-ovqat yeyish uchun ishlatiladigan ro'zg'or buyumi, qanday maqsadda ishlatilishiga ko'ra aholi orasida osh qoshiq, choy qoshiq atamallari uchraydi.

Cho'mich-suyuq ovqatni suzish uchun ishlatiladigan uzun dastali ro'zg'or asbobi.

Qirg'ich-meva va sabzavot etini qirish uchun ishlatiladigan ro'zg'or asbobi. Jondor shevasida ushbu leksema sixak nomi bilan ham keng is'temolda.

Elak-un elash uchun ishlatiladigan uy-ro'zg'or anjomi.

Pichoq-dastaga o'rnatilgan yassi vaq uzun tig'li ro'zg'or asbosi. o'rganilayotgan hududda bichoq leksemasi ham qo'llaniladi.

<sup>1</sup> BuxDU filologiya fakulteti 2-bosqich magistranti

<sup>2</sup> Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. T. – 2016.55-59-betlar.



O'choq-orqa va yon tomonlari yopiq bo'lib, ichiga olov yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon o'rnatiladigan ro'zg'or qurilmasi.

O'choqlar yasalishi va vazifasiga ko'ra ham turli xil shakllarga ega. Masalan, o'rganilayotgan hududda yer o'choq, temir o'choq kabi ko'rinishlari shular jumlasidandir.

O'choq so'zining etimologiyasi to'g'risida ko'pgina tilshunoslarning qiziqqanligini ham ko'rish mumkin.

E.V. Sevortyan o'zining asarida o'choq to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: ya'ni – o'choq so'zining ikkinchi bo'g'inidagi unlilar o'rtasidagi farq, tabiiy ravishda, so'zning bu qismida formal element bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Shunday element sifatida chak (jak-shik) – jik ajratiladi, o' qismi qoladi: ~ o' – u; bu qism o'zak-negiz deb qaraladi: o:t-o't-ut; assimilatsiya natijasida ular ch oldidagi – o'zlarining – t undoshini yo'qotadilar: o:t chak (o:tchik ~ o'tchak) o'tchik-o'chchak (o:chchik, o'chchak), o'chchik > o:chak ~ o'chak va so'ngra -ch ning har xil tillarda jaranglanishi paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.<sup>3</sup>

O'zbek adabiy tilida o'choq so'zi ko'chma ma'noda, ya'ni biror narsa paydo bo'ladigan, amalga oshadigan, tarqaladigan joy, manba, markaz (bilim o'chog'i, tarbiya o'chog'i, madaniyat o'chog'i) ma'nosida ham qo'llanadi.

2. Fors-tojik tilidan o'zlashgan uy-ro'zg'or buyumlari nomlari. O'zbek va tojik xalqlari azaldan qardosh xalqlar sifatida yashab kelayotgani sabab Jondor shevasida ham tojik tilidan o'zlashgan ko'plab so'zlarni uchratamiz. Bu ijtimoiy omillar hudud xalqi tiliga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bundan tashqari, fors-tojik tillaridagi so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida o'rni bor:

1. O'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilliligining keng tarqalganligi;
2. Tojik va fors tillarida ijod qilish an'alarining uzoq yillar davom etganligi;
3. Adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatlardagi mushtaraklik va boshqalar.<sup>4</sup>

Bunday omillar uy-ro'zg'or buyumlari nomlarining tarkibida ham o'z aksini topgan. Masalan, lagan, kapkir, kosa, divan, dastirxon, gilam, tova(tapa), palos, xontaxta.

3. Arab tilidan o'zlashgan uy-ro'zg'or buyumlari nomlari. Arablar istilosidan keyin IX-X asrlarda arab tilidan bir qancha leksemalar o'zlashgan. O'zbek tiliga arab tilidan so'zlar bugungi davrga kelib singib ketgan. Shunday leksemalardan ayrimlarini misol sifatida keltiramiz: supra, tandir, sandiq.

Supra-arab tilidan o'zlashgan uy-ro'zg'or buyumi nomi bo'lib, o'rganilayotgan hududda po'stak leksemasi bilan ham keng qo'llaniladi.

Tandir- non yopish uchun mo'ljallangan, yuzasi loy bilan qoplangan o'choq. O'rganilayotgan hududda tandir nondan tashqari somsa, xamirli taomlarni ham pishirishga mo'ljallangan.

Sandiq-arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, turli buyumlarni, bisotlarni solib qo'yishga mo'ljallangan uy-ro'zg'or buyumi hisoblanadi. Sandiqning qopqoqli, qulf-kalitli, yashik shaklidagi ko'rinishlari mavjud. Sandiq madaniyatimizning bir ko'rinishi bo'lib, o'zbek xalqining urf-odat va an'alarini o'zida aks ettirgan anjomdir. Voyaga yetgan qizlar turmush qurib boradigan uyiga sandiq to'la sarupo bilan borishi o'zbeklarga odat tusiga aylangan.

4. Rus tilidan o'zlashgan uy-ro'zg'or buyumlari nomlariga: samovar, patnis, zakrivalka, karavot, veshilka, vilka, adyol, stol, choynik, xaladelnik, pech kabilar kiradi. Xususan, rus tili orqali kastrulka, karniz, krujka, shkaf, tarelka, stul, lustra, mebel, garnitur, bidoncha, termos kabi bir qancha ro'zg'or anjomlari ham to'g'ridan to'g'ri o'zbeklar nutqiga kirib o'zlashmoqda.

<sup>3</sup> Ikromova N. Uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini ifodalovchi so'z-terminlar haqida// O'zbek tili va adabiyoti.- Toshkent, 1964.- №4. – B.53-56.

<sup>4</sup> <http://www.ziyouz.com>



O'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida rus tilidan o'zlashgan so'zlar fonetik o'zgarishlar orqali bugungi davrga kelib aholi orasida so'zlashuv nutqiga singib ketgan.

Patnis-rus tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, podnos < podnosit so'zining fonetik o'zgarishi jihatidan hosil bo'lgan, idish-tovoq yoki boshqa biror narsani tashish, qolaversa, non, shirinlik, meva kabilarni solib dasturxonga qo'yish uchun mo'ljallangan, keng, yassi metal yoki plastmassa buyum.<sup>5</sup>

Jondor shevasida ushbu leksema qanday maqsadda foydalanishiga ko'ra yuqoridagi ma'nosidan tashqari boshqa ma'nolarda ham qo'llanadi. Masalan, duxovkada biror xil pishiriq pishirish uchun mo'ljallangan buyumga nisbatan ham patnis so'zini qo'llaymiz.

Choynik-adabiy tilda choynak tarzida iste'molda bo'lib, rus tilidan o'zlashib "choy idish" ma'nosini anglatadi. Choy damlab ichiladigan, dastakli va jo'mrakli uy-ro'zg'or asbobi.

Jondor hududi shevasidagi choynik so'zi shakli ikki komponentli so'z bo'lib, uning birinshi komponenti choy xitoysha (chay) so'z hisoblanib, ikkinchi komponenti dish esa umumturkiy idish so'zining qisqargan shaklidir, ya'ni chay+idish > chayidish so'zidan assimillatsiya hodisasi orqali choyidish shakli hosil bo'lgan. O'rganilayotgan hudud shevasida esa ushbu so'z choynik shaklida shevaga aylangan. Bunday ikki komponentli so'zlarga misol qilib "dasmol" leksemasini ham kiritishimiz mumkin.

Dasmol so'zi ham ikki komponentli bo'lib, fors tilidagi dast – qo'l, arab tilidagi mol – boylik, mulk so'zlarining qo'shilishidan yasalgan uy-ro'zg'or buyumi nomi.<sup>6</sup>

Shuningdek, o'rganilayotgan hudud shevasida ustal, ustul so'zlarida tovush orttirillishini kuzatamiz. Bunday hodisa tilshunoslikda proteza deyiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, aholi orasida adabiy tildagi birliklarni o'z hududi nuqtayi nazaridan kelib chiqib, talaffuzda moslashtirgan.

Shuni ham qayd qilish kerakki, uy-ro'zg'or buyumlari nomlarida ikki holat ko'zga tashlanadi. Birinchisi shuki, eng qadimgi davrlardan buyon qo'llanilib kelayotgan va hozir ham amalda bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlari nomlari o'zbek tilida umumturkiy, arab, fors-tojik tillari asosida hosil qilingan va ular qo'llanishda davom qilib kelmoqda. Ikkinchidan, nisbatan keyin paydo bo'lgan, rus tilidan va o'zlashgan uy-ro'zg'or buyumlari nomlari og'zaki nutqda rus tilidagi variantlari asosida qo'llanilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. T. – 2016. 55-59-betlar.
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I jild. 444, 445-b "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Issue 5 / 2020 ISSN 2181-063X 160 <http://oac.dsmi-qf.uz> 4.
3. Ikromova N. Uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini ifodalovchi so'z-terminlar haqida // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1964. - №4. – B.53-56
4. Xo'ja Ahmad Yunus. "Turkiy tillar devoni" dagi bayonlardan uyg'urlarning XI asrdagi yemak-ichmak madaniyatiga nazar. // Urumchi, 2005. № 4. – B.63-65
5. <http://www.wikipedia.org>
6. <http://www.hozir.org>
7. <http://www.ziyouz.com>

<sup>5</sup>Ikromova N. Uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini ifodalovchi so'z-terminlar haqida // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1964. - №4. – B.53-56.

<sup>6</sup> Xo'ja Ahmad Yunus. "Turkiy tillar devoni" dagi bayonlardan uyg'urlarning XI asrdagi yemak-ichmak madaniyatiga nazar. // Urumchi, 2005. № 4. - B.63-65

